



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda vaqtni boshqarish konsepsiyasining nazariy-pedagogik asoslari

Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi –
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
E-mail: ruxsorasoliyeva3@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimida vaqtni boshqarish (taym-menejment) konsepsiyasini joriy etishning nazariy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Bugungi shiddatli axborotlashgan ta'lim muhitida boshlang'ich sinf pedagogining ko'p funksiyali kasbiy faoliyati va undagi vaqt taqchilligi muammosi tahlil qilingan. Tadqiqotda vaqtni boshqarish ko'nikmasi bo'lajak o'qituvchining metakompetensiyasi hamda kasbiy emotsional charchashning oldini oluvchi muhim omil sifatida asoslangan. Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim jarayonida tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning vaqt unumdorligini oshirish bo'yicha pedagogik shart-sharoitlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, taym-menejment, vaqtni boshqarish konsepsiyasi, nazariy-pedagogik asoslar, kasbiy kompetentlik, metakompetensiya, xronometraj, emotsional charchash.

Идактические возможности воспитания детей дошкольного возраста средствами устного народного творчества

Аннотация. В статье исследованы теоретико-педагогические основы внедрения концепции управления временем (тайм-менеджмента) в систему подготовки будущих учителей начальных классов. Проанализирована многофункциональная профессиональная деятельность педагога начальных классов в современной динамичной информационно-образовательной среде, а также проблема дефицита времени в данной деятельности. В исследовании навык управления временем обоснован как метакомпетенция будущего учителя и как важный фактор профилактики профессионального эмоционального выгорания.

Также разработаны педагогические условия и рекомендации по повышению продуктивности использования времени студентами в процессе высшего педагогического образования на основе системного, деятельностного и компетентностного подходов.

Ключевые слова: *будущий учитель начальных классов, тайм-менеджмент, концепция управления временем, теоретико-педагогические основы, профессиональная компетентность, метакомпетенция, хронометраж, эмоциональное выгорание.*

Didactic opportunities for educating preschool children through oral folk art

Annotation. *The article examines the theoretical and pedagogical foundations for introducing the concept of time management into the system of training future primary school teachers. It analyzes the multifunctional professional activity of a primary school teacher in today's rapidly developing information-based educational environment, as well as the problem of time deficiency in this activity. The study substantiates time management skills as a metacompetence of a future teacher and as an important factor in preventing professional emotional burnout. In addition, pedagogical conditions and recommendations aimed at increasing students' time productivity in the process of higher pedagogical education have been developed on the basis of systematic, activity-based, and competency-based approaches.*

Keywords: *future primary school teacher, time management, concept of time management, theoretical and pedagogical foundations, professional competence, metacompetence, time tracking, emotional burnout.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi tub islohotlar, raqamlashtirish jarayonlarining shiddatli tus olishi va ilg'or xalqaro o'quv standartlarining milliy ta'lim amaliyotiga integratsiyalashuvi bugungi kun o'qituvchilari zimmasiga mutlaqo yangi mazmundagi funksional, ijtimoiy va professional vazifalarni yuklamoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati o'zining ko'p qirraliligi, pedagogik vaziyatlarning o'ta dinamikligi, tezkor va nostandart qarorlar qabul qilish zaruriyati hamda shaxsiy-emotsional mas'uliyatining yuqoriligi bilan boshqa pedagogik mutaxassisliklardan tubdan farq qiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichidagi pedagog nafaqat belgilangan fan dasturlari bo'yicha dars soatlarini tashkil etish bilan cheklanadi, balki u har bir o'quv mashg'ulotini zamonaviy didaktik talablar asosida loyihalash, o'quv-tarbiya jarayonlarining uzoq va qisqa muddatli strategiyalarini belgilash, raqamli axborot tizimlari va elektron platformalar orqali monitoring ishlarini yuritish, sinfdan hamda maktabdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimlashtirish, shuningdek, ota-onalar hamjamiyati bilan doimiy, psixologik jihatdan muvozanatlashgan muloqot munosabatlarini yo'lga qo'yish kabi murakkab tarkibiy qismlarni bir vaqtning o'zida boshqarishi shart. Mazkur ko'p funktsiyali va serqirra sharoitda zamonaviy umumta'lim maktablari pedagoglari duch kelayotgan eng global inqirozlardan biri, bu – surunkali xarakterga ega bo'lgan vaqt taqchilligi va shaxsiy vaqt resurslarini strategik rejalashtira olmaslik muammosidir. Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim bosqichidayoq taym-menejment konsepsiyasi bilan tizimli qurollantirish pedagogika fanining eng dolzarb va konseptual muammolaridan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Vaqtni boshqarish” (Time Management) tushunchasining genezisi va tarixiy-evolyutsion rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu kategoriya dastlab g'arb iqtisodiy maktablari va korporativ menejment tizimida, xususan, Piter Druker, Alan Lakeyn, Stiven Kovi, o'tgan asrlarda esa mehnatni ilmiy tashkil etish asoschilaridan biri hisoblangan Frederik Teylor tomonidan ishlab chiqarish unumdorligini oshirish mexanizmi sifatida tadqiq etilganligini ko'ramiz. Biroq, ta'lim tizimining insonparvarlashuvi va uning ijtimoiy maqsadlarining o'zgarishi natijasida vaqt unumdorligi muammosi pedagogik tadqiqotlarning ham fundamental ob'ektiga aylandi. Respublikamizning taniqli pedagog olimlari va psixologlari ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari va o'qituvchilarining shaxsiy va professional samaradorligini oshirish, mehnat faoliyatini to'g'ri rejalashtirish masalalarini o'rgangan bo'lsalar-da, oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini konseptual tayyorlashda taym-menejment yo'nalishini yaxlit didaktik tizim darajasiga ko'tarish masalasi keng ko'lamda o'rganilmagan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik tabiati shundaki, u maktab hayotiga endigina qadam qo'ygan, vaqtning ob'ektiv realligini hali to'liq his qila olmaydigan 6-10 yoshli kichik maktab yoshidagi bolalarda vaqt madaniyatini, kun tartibiga rioya qilish tuyg'usini tarbiyalovchi dastlabki yo'llovchi hisoblanadi. Demak, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining shaxsida vaqt bilan ishlash madaniyatini fundamental shakllantirmasdan turib, uning kelajakdagi pedagogik faoliyatidan yuqori natija kutish mantiqiy jihatdan noto'g'ridir.

Ushbu muammoni tizimli hal etishda tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida tizimli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tanlab olindi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy pedagogik modelini yaratishda talabalarning dars va darsdan tashqari, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonlaridagi real vaqt sarfini xolis baholash maqsadida pedagogik xronometraj usuli, dars jarayonlarining mikrotahlili, sotsiologik-pedagogik so'rovnomalar, amaliy vaziyatlarni loyihalash va statistik tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogika fani va amaliyotining bugungi rivojlanish bosqichida ta'lim sub'ektlarining ichki imkoniyatlarini optimallashtirish muammosi birinchi o'ringa chiqmoqda va bu resurslar tizimida vaqt qayta tiklanmaydigan, to'ldirib bo'lmaydigan eng oliy strategik omil sifatida baholanmoqda. Falsafiy va pedagogik kontekstda taym-menejment tushunchasi shunchaki mexanik vaqt hisobi, kunlik vazifalar ro'yxatini tuzish yoki zamonaviy gadjetlardan foydalanish bilan cheklangan tor tushuncha emas. U shaxsning o'z-o'zini tashkil etishi, kasbiy hayot yo'lini prognozlashtirishi va shaxsiy rivojlanish qadriyatlarini shakllantiruvchi yuksak madaniy hodisa sifatida talqin etiladi. Klassik iqtisodiy menejment tizimida vaqtni boshqarishning pirovard maqsadi moddiy foyda olish, ish hajmini maksimal darajada oshirish bo'lsa, pedagogik taym-menejmentning konseptual maqsadi – ta'lim-tarbiya jarayonining har bir komponentini insonparvarlik tamoyillari asosida optimallashtirish, o'qituvchi va o'quvchining intellektual hamda emotsional salohiyatini asrash, yosh mutaxassisning kasbiy o'sishi uchun qulay pedagogik makon yaratishdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimida vaqtni boshqarish konsepsiyasi uchta muhim pedagogik o'lcham (izmerenie) orqali o'zining ilmiy-nazariy interpretatsiyasiga ega bo'ladi. Birinchisi, aksiologik (qadriyatli) o'lcham bo'lib, u bo'lajak mutaxassisda vaqtga nisbatan shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida qarashni shakllantiradi. Bo'lajak o'qituvchi o'zining kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi har bir daqiqa shunchaki dars o'tish davri emas, balki yosh bolaning dunyoqarashi va intellektual poydevorini quruvchi

strategik davr ekanligini chuqur anglab yetishi shart. Bu yondashuv pedagogda vaqtga nisbatan yuksak professional mas'uliyatni tarbiyalaydi. Ikkinchisi, kognitiv-metodologik o'lcham bo'lib, u oliy ta'lim jarayonida talabalarga vaqtni boshqarishning eng samarali metodologik vositalarini, jumladan, Eyzanxauer matritsasi, Pareto tamoyili (80/20 qoidasi), Pomodoro texnikasi kabi asboblarni pedagogik realikka moslashtirgan holda o'rgatishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda vaqt unumdorligi o'qituvchining dars ssenariysini didaktik jihatdan mukammal modellashirish qobiliyati bilan uzviy bog'lanadi. Uchinchisi, refleksiv-boshqaruvchanlik o'lchami bo'lib, u bo'lajak pedagogning o'z amaliyotida yuzaga keladigan vaqt yo'qotishlarini, ya'ni pedagogik "vaqt o'g'rilarini"ni (taym-fagots samarasiz muloqotlar, tartibsiz hujjatbozlik, raqamli chalg'ishlar) mustaqil tahlil qilish va ularni korreksiya qilish malakasini ifodalaydi. Mazkur o'lcham o'qituvchini kasbiy tanazzuldan va surunkali stressdan himoya qiluvchi ichki psixologik-pedagogik filtr vazifasini bajaradi. Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tizimida vaqtni boshqarish konsepsiyasining nazariy-pedagogik interpretatsiyasi bu pedagogning kasbiy dunyoqarashi, sotsial adaptatsiyasi va dars muhitini ilmiy asosda tashkil etishga qaratilgan integral metakompetensiyasini rivojlantirish jarayonidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixofiziologik tabiati va yosh davrlari psixologiyasini inobatga olish konsepsiyaning o'ta muhim amaliy komponentidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fiziologik-asab tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vaqt boshqaruvi ikki muhim yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, dars bosqichlarini soniyalar kesimida loyihalash mahorati. 45 daqiqalik an'anaviy dars davomida 7-9 yoshli bolaning faol diqqat barqarorligi har 10-15 daqiqada inqirozga uchraydi va tarqoqlashadi. Bo'lajak o'qituvchi dars vaqtini shunday moslanuvchan (dinamik) taqsimlashi kerakki, bu davrda intellektual og'irlik, jismoniy dam olish daqiqalari (fizminutkalar), ko'rish qobiliyatini tiklovchi vizual mashqlar va didaktik o'yinlar almashinuvi soniyalarigacha aniq rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, kutilmagan vaziyatlar (fors-major) uchun maxsus vaqt zaxirasini loyihalash. Boshlang'ich sinf xonasi o'ta o'zgaruvchan pedagogik muhit bo'lib, har qanday kutilmagan omil – o'quvchining adaptatsiya inqirozi, o'quv qurollarining unutilishi yoki darsning texnik vositalaridagi nosozliklar darsning rejalashtirilgan strukturasi buzib, katta hajmdagi vaqt yo'qotilishiga olib keladi. Taym-menejment konsepsiyasi bo'lajak o'qituvchiga dars konspektini tuzishda doimiy ravishda kamida 5-7 daqiqalik "moslanuvchan zaxira vaqti" (buffer time) qoldirishni hamda darsning mantiqiy yakuni hisoblangan refleksiya (baholash va xulosa) bosqichini har qanday sharoitda ham asrab qolishni o'rgatadi.

Oliy ta'lim tizimiga vaqtni boshqarish konsepsiyasining nazariy asoslarini izchil tatbiq etish va talabalarni ushbu yo'nalishda maqsadli tayyorlash natijasida bo'lajak mutaxassislarda quyidagi sifat ko'rsatkichlari va professional ko'nikmalar dinamikasi kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval.

Taym-menejment konsepsiyasi joriy etilgandan keyingi talabalar kompetensiyasining o'zgarishi

Baholash mezonlari va professional ko'nikmalar tarkibi	An'anaviy tayyorlash tizimida talabalar ko'rsatkichi	Konseptual yondashuv joriy etilganda talabalar ko'rsatkichi
Dars bosqichlariga ulgurish va vaqtni didaktik taqsimlash samaradorligi	65% holatda dars oxirgi refleksiya va mustahkamlash bosqichiga yetmay qoladi	92% holatda dars belgilangan reja va xronometraj asosida to'liq yakunlanadi
Metodik hujjatlar, elektron platformalar bilan ishlash tezkorligi	Ko'p vaqt yo'qotiladi, tizimsizlik va rejasizlik tufayli stress yuzaga keladi	Raqamli shablonlar va rejalashtirgichlar orqali vaqt sarfi 40% ga tejiladi

Kasbiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirishga vaqt ajratish imkoniyati	Kunlik ish yuklamasining ko'pligi sababli bu jarayon deyarli mavjud emas	Kunlik 15-20 daqiqa shaxsiy tahlil va ertangi kunni loyihalash ko'nikmasi shakllanadi
Sinf jamoasida intizomni vaqt me'yorlari orqali boshqarish	Shovqin va intizomsizlikni bosishga 15-20% dars vaqti samarasiz sarflanadi	Vizual taymerlar yordamida intizom vaqtga bog'lanadi, yo'qotish 5% gacha kamayadi

Ushbu qiyosiy ma'lumotlar va o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari shuni yaqqol ko'rsatadiki, vaqtni boshqarish konsepsiyasi asosida tayyorlangan bo'lajak mutaxassislarning ko'nikmalari an'anaviy ta'lim dasturlarida tahsil olgan talabalarga qaraganda barcha mezonlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etadi. Bu esa ularning kelajakdagi real maktab sharoitiga, yangi pedagogik jamoaga tezkor va muammosiz moslashuvchanligini (adaptatsiya) kafolatli ta'minlaydi.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv rejalari mazmuniga "Pedagogik taym-menejment va shaxsiy samaradorlik" fanini tanlov fani sifatida kiritish, talabalarning pedagogik va malakaviy amaliyoti davrida darslarning xronometraj tahlilini yuritishni majburiy pedagogik talab etib belgilash kabi shart-sharoitlar ushbu muammoni oliy ta'lim tizimida fundamental tarzda hal etish imkonini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda vaqtni boshqarish konsepsiyasining nazariy-pedagogik asoslarini mukammal va har tomonlama ishlab chiqish zamonaviy global axborot makonidagi maktab ta'limi talablaridan kelib chiqqan ob'ektiv pedagogik zaruriyatdir. Taym-menejment bo'lajak pedagog uchun shunchaki texnik rejalashtirish yoki kun tartibini belgilash vositasi emas, balki uning zamonaviy kasbiy kompetentligini, innovatsiyalarga moslashuvchanligini va umumiy pedagogik mahoratini belgilovchi tayanch metakompetensiya hisoblanadi. Oliy ta'lim bosqichida ushbu tizimning metodologik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilishi kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy hayoti o'rtasida muvozanat (Work-Life Balance) yaratadi, yosh mutaxassislarni emotsional inqirozlardan va kasbga nisbatan loqaydlik paydo bo'lishidan ishonchli himoya qiladi. Pirovardida, ushbu konseptual yondashuv umumiy xalq ta'limi tizimining ta'lim samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni hamda maktab ta'limining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng asosiy strategik omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga vaqtni boshqarish konsepsiyasini joriy etish zamonaviy shiddatli axborotlashgan ta'lim muhitida ob'ektiv pedagogik zaruriyatdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, taym-menejment bo'lajak pedagog uchun shunchaki texnik rejalashtirish vositasi emas, balki uning kasbiy kompetentligini, moslashuvchanligini va darsni samarali tashkil etish mahoratini belgilovchi tayanch metakompetensiya hisoblanadi. Oliy ta'lim bosqichida vaqtni rejalashtirishning ilmiy asoslangan metodlarini talabalar ongiga singdirish orqali kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy hayotida muvozanat (Work-Life Balance) yaratish, ularni emotsional charchash (burnout) inqirozlaridan asrash mumkin. Pirovardida, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu konsepsiya asosida tayyorlash maktab ta'limida dars vaqtining har bir soniyasidan unumli foydalanish imkonini beradi va umumiy ta'lim sifatini oshirishni ta'minlovchi strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020. – 72 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
3. Ergasheva M.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari // Pedagogika jurnali. – 2022. – № 3(2). – B. 45–51.
4. Ishmuhammedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 180 b.
5. Jalolova S.X. Pedagogik faoliyatda taym-menejment muammolari va yechimlari // Ta'lim va innovatsiya. – 2024. – № 5(1). – B. 112–118.
6. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 230 b.
7. Umarov B.M. O'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishi va emotsional barqarorligi masalalari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2023. – 165 b.
8. Drucker P.F. The Effective Executive. – Moscow: Williams, 2006. – 224 p.
9. Covey S.R. Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi / Tarjima nashr. – Toshkent: Nishon-Noshir, 2021. – 380 b.
10. Lakein A. How to Get Control of Your Time and Your Life. – New York: Signet, 1996. – 160 p.